

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

QARSHI MUHANDISLIK IQTISODIYOT INSTITUTI

«Kasb ta'limi» fakulteti

«Kasb ta'limi va pedagogika» kafedrası

«Kasb ta'lim metodikasi. O'qituvchi nutq madaniyati» fanidan

KURS ISHI

Mavzu: Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiya
faoliyatini jadallashtirish mavzusidagi kurs ishi

Bajardi: S. Serkayev
(imzo)

S. Serkayev
(f.i.sh.)

Rahbar: D. Q. Abdijeva
(imzo)

D. Q. Abdijeva
(ilmiy unvoni f.i.sh.)

88050111

komissiya a'zolari:
H. Uygunov, H. D. Abdijeva, B. Uygunov, H. D. Abdijeva

QARSHI – 2013 y.

QARSHI MUHANDISLIK IQTISODIYOT INSTITUTI

Kasb ta'limi fakulteti
Kasb ta'limi (iqtisodiyot) ta'lim yunalishi

«TASDIQLAYMAN»

KT 22 P kaf. mudiri

dosr. Z. L. Botirov

(imzo, f.i.sh)

« » 2002 y

**KURS ISHINI BAJARISH UCHUN
TOPSHIRIQ**

Talaba Serkayev Sardor Guruh KT-45 Kurs
ishi mavzusi Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiya
faoliyatini jadallashtirish

Kurs ishini topshirish muddati 18 yanvar

Kurs ishi uchun ma'lumot iqtisodiy ma'lumotlar Prezident asarlari
va metodik ma'lumotlar to'plangan

Yozma-tushuntiruv kismining mazmuni (ishlab chiqilishi lozim bo'lgan savollar ro'yxati)

Kirish.

1. Fan va mavzuni tavsifini yoritish.
2. O'qitish metodikasini umumiy masalalarini tavsiflash.
3. Nazariy dars o'tish metodikasini ishlab chiqish.
4. Laboratoriya yoki amaliy mashg'ulot o'tish metodikasini ishlab chiqish.
5. Ishlab chiqarish ta'limini o'qitish metodikasini ishlab chiqish.
6. Xulosa.
7. Adabiyotlar ro'yxati.
8. Mundarija.

Chizma yoki slaydlar ro'yxati (bajarilishi shart bo'lgan slayd va grafiklar)

1. Yangi pedagogik texnologiyalar bo'yicha ko'rgazmali qurol.
2. Instruksion-texnologik karta.

Kurs ishi rahbari D. Q. Abdiyeva

Talaba S. Serkayev

Topshiriq olingan kun 03.11.2012 y.

Kirish

O'zbekiston Respublikasi demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo'lini tanlagan va amalga oshirib kelmoqda. Respublikamizda amalga oshirilayotgan qayta qurishning asosiy maqsad va uning harakatlantiruvchi kuchi inson shaxsining har tomonlama rivojlanishi va faravonligi hisoblanadi. Mamlakatimiz taraqqiyotining muhim sharti kadrlarni tayyorlash tizimining mukammal bo'lish zamonaviy iqtisod, fan, madaniyat, texnika va texnologiyalar asosida rivojlanish hisoblanadi. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” uzluksiz ta'lim va kadrlarni tayyorlash tizimlarini tubdan isloh qilishga qaratilgan. Milliy dasturni amalga oshirishda mavjud ta'lim va kadrlarni tayyorlash tizimlarini tubdan o'zgartirish zamonaviy bosqichda pedagog dolzarb vazifalariga fan, texnika ilg'or texnikalar yutuqlaridan foydalanish asosida shaxsni tarbiyalash o'qitish, va rivojlantirish maqsadlari, mazmuni, metodlari, vositalari va tashkiliy shakllarini ilmiy ta'minlash kiradi. Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati uzluksiz ta'lim tizimi orqali xar tomonlama shaxs-fuqarolarning tashkil topishini ko'zda tutadi. U ushbu ta'lim tizimida va kadrlar tayyorlashda ta'lim xizmatlarining iste'molchisi, buyurtmachisi sifatida ishtirok etadi. Shaxs ta'lim jarayonlarining ishlab chiqaruvchisi sifatida ta'lim, moddiy ishlab chiqarish, fan, madaniyat xizmatlar sohasi faoliyatida bilish va tajribalarni berishda ishtirok etadi.

Respublikamizda shaxsni o'zining ijodiy imkoniyatlarini amalga oshirish uchun professional ta'lim dasturini tanlash huquqini bergan. Uzluksiz ta'lim tizimida kasb-xunar ta'limi alohida o'rin egallaydi va O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi va „Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” qonunlariga binoan amalga oshiriladi.

1.1

Kasb-hunar kollejlarning malakali mutaxassislar tayyorlashdagi o'рни va vazifalari.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi bo'yicha tashkil etilayotgan kasb-hunar kollejlari jixozlanganlik darajasi, pedagogik tarkibning tanlanganligi o'quv jarayonlarni tashkil etish jihatidan yangi turdagi ta'lim muassasalari xisoblanadi. Ular bir yoki bir necha zamonaviy kasb-hunar egallash hamda tegishli o'quv fanlaridan chuqur nazariy bilim olish imkonini beradi.

Kasb-hunar kollejlarini bitirib chiqqan kadrlar hozigi zamon ishlab chiqarish asoslari, uning bazasi xaqidagi bilimlar sistemasi bilan qurollantiriladi hamda inson faoliyatining turli soxalari bo'yicha o'zlashtirib olish uchun ba'zi ahamiyatga ega bo'lgan bir qator ko'nikma va malakalarni egallab olishadi.

Yoshlar mutaxassislik yuzasidan puxta va izchil ta'lim- tarbiya olishi natijasida malaka va ko'nikmalar hosil bo'ladi. Mehnatga qiziqish va ishtiyoq tarbiyalanadi, mehnatkashlarga nisbatan hurmat jihatidan bo'yin tovlovchilarga nisbatan nafrat hissi tarkib topadi. Mavjud fanni o'rganish natijasida o'quvchilarga qishloq xo'jaligining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda kasb-hunar kollejlarida ilg'or pedagogik texnologiyalarni yaratish va o'zlashtirish yuzasidan, maqsadli innovasiya loyixalari shakillanadi ilm-fanni ta'lim amaliyoti bilan birlashtiradi.

1.2 „O'bekiston milliy iqtisodiyoti” fanning boshqa fanlar bilan uzviy bog'liqligi.

Har qanday mutaxassis tayyorlashda yo'nalishiga qarab, tibbiy, ijtimoiy, iqtisodiy, texnikaviy texnologik, pedagogik fanlar o'rganladi. Shuning uchun bu fanlarni o'rganishda yuqorida ko'rsatilgan fanlar yutig'iga tayanib ta'lim olib boriladi

Tabiiy fanlarga matematika, informatika, biologiya kabi qator fanlar bilimlarini beradi.

Ijtimoiy-iqtisodiy fanlarga iqtisodiy nazariya, marketing, menejment, moliya, buxgalteriya kabi bir qator fanlar kirib, bu fanni o'rganishda muhim baza bo'lib xizmat qiladi. Iqtisodiy yo'nalishda

o'qiydigan kasb- hunar kollejlarda o'qituvchi bo'lib hizmat qilishiga yo'naltirilganligi sababli kasb ta'limi yo'nalishi talablariga pedagogika, psixologiya o'qitish metodikasi, kasb mahorati kabi qator fanlar ham o'qiladiki natijada butun bir borliqni tashkil etuvchi o'qish jarayoni yuzaga keladi. Demak har qanday mutaxassis tayorlashda o'qituvchi fanlarning uzviy bog'liqligiga tayangan xolda ta'lim berish lozim.

2.1. Pedagogik ta'lim jarayoni

Ta'lim jarayonining ilmiy, nazariy, uslubiy va amaliy asoslarini ya'ni ta'lim, bilim berish, o'qitish nazariyasi bilan pedagogikaning mustaqil bo'limi didaktika shug'ullanadi.

Ta'lim inson bilish faoliyatining eng murakkab turlaridan biri bo'lib individual psixik rivojlanishni va bilimlarni o'zlashtirishni ancha tezlashtiradi.

Ta'limning asosiy vazifasi shaxsnig ilmiy bilimlar ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishdan iborat.

Ta'lim inson bilish faoliyatining bir turi ya'ni ta'lim oluvchilarga bilim ko'nikma va malakalar hosil qilish ularga dunyo qarash fikr va e'tiqotlarni shakllantirishni hamda ularning qobiliyatlarini o'stirishdir.

Ta'lim o'qituvchi va o'quvchining birgalikdagi faoliyati bo'lib, u ikki tomonlama xarakterga ega ya'ni unda ikki tomon o'qituvchi va o'quvchi faol ishtirok etadi. O'qituvchi, o'quvchi va talabalardagi fikrlash sharoitini to'g'ri yo'lga solish uchun amaliyot har qanday bilimning negizidir.

O'qituvchi o'quvchi talabaning bilish faoliyatini tashkil qilish maqsadida o'quv ishlarini olib borar ekan, avvalo ma'lum jarayoni orqali 3 vazifani, yani, bilim berish orqali 3 maqsadni hal qilishi lozimligini unutmasligi kerak. Bu maqsadlar o'qituvchi o'quvchilar faoliyatini birlashtiradi.

1. Ta'limiy maqsad o'quv materiallarining mazmunini bilish yani iqtisodiyot faniga tegishli milliy bilimlarni o'zlashtirish va amaliyotga tadbiq qila olishlik.

2.Tarbiyaviy maqsad fan asoslarini o'zlashtirish orqali uning mazmunida yotgan g'oyalar , dunyo qarashlar ta'sirida o'zining shaxsiy sifatlarini iymon e'tiqotlarini shakllantirishdir.

3.Rivojlantiruvchi maqsad ta'lim jarayonlari ta'sirida shaxsning aqliy komoloti bilish qobiliyati o'qishga, mehnatga bo'lgan munosabatini rivojlantirishdan iboratdir.

Bu maqsadlarni amalga oshirish natijasida o'quvchi talabada mustaqil ishlash iste'dodi paydo bo'ladi. Uni o'ylashga o'rgatadi. Ta'lim jarayonida tafakkur hukmronlik qiladi. Ta'lim turli bosqichlarda amalga oshiriladi.

Birinchi bosqich-o'quv materiallarini idrok qilishda iborat. Unda o'quvchi talaba ta'lim bilan tanishish o'zining bilish vazifalarini nimalardan iborat ekanligini tushunib oladi. Bunda sezgi, idrok, ta'savvur kabi sharoitlar faol ishtirok etadi.

Ikkinchi bosqich- ular o'quv materiallarni tushunib oladi uning mohiyatini anglaydilar. Natijada ularga yangi bilimlar paydo bo'ladi. Buning uchun ular analiz, sentiz, taqqoslash, xulosa chiqarishdan foydalanadilar.

Uchinchi bosqich- yangi bilimlar, mashqlar, mustaqil ishlar, o'qituvchining qo'shimcha izoxlari orqali mustahkamlanadi.

To'rtinchi bosqichda - ular o'zlashtirib olgan bilimlarini imkoniyatiga qarab amalga tadbiq qiladilar.

2.2 Ta'limning mazmuni va maqsadi.

Ta'limning asosiy mamunini uning vazifalarida oydinlashtiradi. Asosiy vazifalariga aqliy tarbiya bilan bog'liq bo'lgan vazifalar kiradi. Bu vazifalar ichida ilmiy va texnikaviy bilimlar holida ular bilan bog'liq bo'lgan malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirish jamiyatda insonning tutgan o'rni, ta'lim-tarbiyani, odob-axloqi xaqidagi xikmatli fikrlar borki, bular buguni

xalq ta'limi taraqqiyoti uchun yoshlarimizda insonparvarlik, mehnatsevarlik, mardlik singari tuyg'ularni tarbiyalaydi.

- ✓ Yangi demokratik jamiyat qurishda ta'lim mamuni bu jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqib va quyidagilarga amal qilgan xolda belgilanadi.
- ✓ ilmiy bilimlarning etakchi roli to'g'risidagi qoidaga;
- ✓ insoniyatning madaniy-ma'rifiy merosi boyliklarni umuminsoniy qadryatlarni egallab olish xaqidagi "milliy dastur" ko'rsatmalariga;
- ✓ tarbiyalanuvchi shaxsni barkamol avlod qilib rivojlantirish imon-e'tiqodni ilmiy dunyoqarashini tarkib toptirish;
- ✓ ilmiy hayot bilan demokratik jamiyat qurishni tajribali bog'liqligi xaqidagi qoidaga;
- ✓ ta'limning bir maqsadga qaratilganligi (umumiy va kasbiy ta'lim);

ta'lim soxasidagi davlat siyosatini asosiy prinsiplariga va demokratik prinslarga muvofiqligiga amal qiladi:

Ta'limning mazmuni o'zgaruvchan, u doimo yangilanib turadi. Yangi demokratik jamiyat qurayotgan hozirgi kunda fan va texnikaning pedagogik texnologiyalarning jadal rivojlantirishni, xalqimizning madaniy ma'rifiy yuksalishi tufayli bu jarayon ayniqsa tezlashadi.

Ta'limning maqsadi- mustaqil jamiyatimiz ravnaqiga nazariy va amaliy hissa qo'sha oladigan „Barkamol avlodni tarbiyalash.

Ta'limning vazifasi- yosh avlodni ilmiy bilimlar, ko'nikmalar va malakalarni tizimi bilan qurollantirish.

Darsining maqsadi- o'qituvchining rejalashtirgan aniq bir mavzusini o'quvchilarga bildirish va o'quvchilar o'zlashtirgan bilim ko'nikma va malakalarni tekshirib ko'rish hamda yangi mavzuga zamin yaratish.

Darsning mazmuni uni o'qituvchi tomonidan rejalashtirgan tugal ma'noga ega matn tashkil etadi. Uni o'quvchilar ongiga singdirish sharoitida manba, xulosa va hikoyalardan foydalaniladi.

Dars o'z oldiga qo'ygan aniq maqsadi va tugal mazmunidan iborat. Shu maqsad mazmun o'quvchilarni yosh xususiyatlariga mos belgilanganligi metod tuzilishi bo'lgan, qat'iy dars jadvaliga muvofiq, o'qituvchi rahbarligi ostida o'quvchilarni hammasi bilan yoki har biri bilan individual muloqotining ta'limiy farmoyishga aytiladi.

Dars pedagogik protsessining asosiy ko'rinishi. Dars aniq maqsad tugal mazmuniga ega bo'lishi bilan birga o'zidan oldingi va keyingi darslar bilan uzviy ravishda bog'langan bo'lishi shart.

Dars turlari darsning maqsadi, mazmuni va o'quvchilarni yosh xususiyatiga qarab, darsning tuzilishi xar xil bo'ladi.

- 1) Ular quydagi turlarga ajratildi.
- 2) Darslarni asosiy maqsad mazmuniga qarab turlarga bo'lishi;
- 3) Darslarni o'qitish prosesining analiziga qarab turlarga bo'lish;

Darslarni tuzilishiga qarab turlarga bo'lish

2.3 Ta'lim tamoyillari (printsipalari)

Ta'lim tamoyillari Respublikamizda qabul qilingan

“ Kadrlar tayyorlash milliy dastur” asosida uzluksiz ta'limni tashkil etish va rejalashtirishning asosiy tamoyillari quydagicha belgilab berilgan ta'limning ilmiy bo'lishi:

Ta'lim tamoyillari o'quv yurtlari oldida turgan ulkan vazifalar asosida belgilanadi. Ular o'zaro bir-birlari bilan mustaqil holda bir sistemani tashkil etadi. Xar bir darsda didaktik tamoyillarining bir nechitasi ishtirok etishi mumkin. Ular ta'lim oldida turgan asosiy maqsadlarni xal etishga o'z hissasini qo'shadi. Ta'lim tizimi islox qilinayotgan hozirgi jarayonda o'quvchi-talabalarga bilim berish, ularni erkin, mustaqil fikrlay oladigan insonlar qilib tarbiyalashda, ta'lim tamoyillarining mohiyatini chuqur anglay olish va xayotga tadbiiq etish muxim muammolardan biridir.

O'quv yurtlarida beriladigan bilim ilmiy xarakterga ega bo'lishi fan-texnikaning so'ngi yutuq va kashfiyotlarini o'zida ifoda etish lozim. Shunday ekan o'quvchi ilm-fandagi yangiliklardan xabardor bo'lish lozim. O'quv fanlari ham ilm-fan asosida yaratiladi. O'quvchining ilmiylik tamoyillari ta'lim jarayonlarida o'quvchi-talabalarga hozirgi zamon fan- texnika taraqqiyoti darajasidagi ilmiy bilimlar bilan qurollantirish, ayniqsa talaba yoshlarni ilmiy tadqiqot usullari bilan tanishtirib borishga qaratilgan.

Ilmiylik ta'limning mazmuniga ham, usulariga ham bog'liqdir. Shunday ekan bilim ilm-fan bilan o'quv predmeti o'rtasidagi hamkorlik o'zaro bo'lishiga erishish lozim. Ta'limning hamma bosqichlarida ilmiy ma'lumotlaridan foydalanish lozim.

2.3. Ta'limda nazariya bilan amliyyotning bog'liq bo'lishi lozim

Nazariy bilimlarning amaliyoti bilan tumush tajribalari bilan bog'lab olib boorish ta'limning etakchi qoidalaridan hisoblanadi. Ta'lim-tarbiya sohalaridagi yutuqlar, eng avvalo nazariya bilan bog'liqligiga asoslanadi. Shundagina o'quvchi-talaba o'rganayotgan o'quv materallarining tub mohiyatini tushunib etadi va amaliyyotda ulardan foydalana oladi. Buning uchun o'quvchi ta'lim jarayonida o'quvchilarni faol ishtirok etishlariga erishmoq lozim. Faol ishtirok esa bilimlarni ongli tushunib o'zlashtirilishiga olib keladi.

Ta'limdagi onglilik va faollik o'quvchidagi ko'tarinki kayfiyat, ko'proq bilishga intilish, mustaqil fikrlash va xulosalar chiqarishga undaydi. Bilimlarni ongli va faol o'zlashtirilishi o'qitish jarayonlarining psixologik tomonlarida o'z ifodasini topadi.

O'qitishda nazariy bilimlar qanchalik qat'iy bayon etilsa o'quvchi-talabalarning fikr yuritishi xam shunchalik aniq va ravon bo'ladi. O'quv materiallarini ongli o'zlashtirish darajasi ham oshadi.

Ta'lim tarbiyalovchilik imkoniyatlaridan foydalanish.

O'qitib tarbiya berish deganda bir-biridan (ta'lim va tarbiya) ajralmasligini tushunamiz. O'quvchi-talaba ilmiy bilimlarni o'zlashtirar

ekan, uning dunyoqarashi irodasi va axloqiy sifatlari, imon e'tiqodi va qobiliyati ham o'sib rivojlanib boradi.

Ta'limning tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanishda o'qituvchi avvalo ta'limni uslubiy jihatdan to'g'ri tashkil etishga, o'quv materiallarining mazmuni bilan bog'liq tarbiyaviy maqsadlarni aniq belgilashga va bilim olishga qiziqтира olishga bog'liq.

Ta'lim jarayonini ko'rsatmali bo'lishi.

O'qitish jarayonini ko'rgazmali tashkil etishi zarur ham etish ham ko'rsatish orqali o'quv materiallarni idrok qilish, ularni ongli va puxta o'zlashtirish bilimlarni turmushdagi zaruriyatini anglab etishlariga asos soladi, diqqatini barqororlashtiradi. Shuning uchun ko'rgazmali materiallar o'rganishayotgan mavzuni mazmuniga mos kelishi o'quvchi-talabanning yoshi va bilim darajasiga muvofiqlashgan bo'lishi, ulardan foydalanishning samarali yo'l va vositalarini qo'llash va ishlab chiqarish lozim.

Bilimlarni puxta va sistemali o'zlashtirib olish.

Bilimlar turli yo'l vositalari orqali puxta o'zlashtirilgandagina u mustahkam esda qoladi, bu esa o'quv materiallarini ongli o'zlashtirishga nazariya bilan amaliyotni bog'lashga, ko'rsatmaslilikka amal qilishga va bilimlarni takrorlash orqali mustahkamlashga bog'liqdir. Ta'limning bosh maqsadi esa bilimlarni sistemali va puxta o'zlashtirishdir.

2.4 Ta'lim metodlari va vositalari

Ta'lim berishda o'qitish metodlari asosiy o'rinni egallaydi.

O'qitish metodlari deganda o'quv yurti o'quvchi va talabalarning bilim, mahorat va malakalarini egallashda ularning bilish qobiliyatini rivojlantirishda va dunyo qarashini tarkib toptirishda yordam beradigan o'qituvchi va o'quvchilarning ish usullari tushuniladi.

1. O'qitish metodlari har qanday muammoni uzatish va qabul qilish jarayoniga qarab asosan 3 ta turga bo'linadi.
2. So'z orqali ifodalanadigan og'zaki metod.

3. Ko'rgazmali metod

Amaliy metod

- ✓ Bu metodlar ham bir qancha metodga bo'linadi:
- ✓ O'qitishning ma'ruziga (suhbat)metodi.
- ✓ O'qituvchining amaliy ishlar metodi.
- ✓ Laboratoriya ishlar metodi.
- ✓ Mustaqil ishlar metodi.
- ✓ Muammoli evristik modellashtirish metodi.
- ✓ Ilmiy tadqiqod metodlari.
- ✓ O'qitishning muammoli izlanish va reproduktiv metodi.
- ✓ O'qitishning indiktiv va dedaktiv metodi.

O'qitishning nazariy va o'z-o'zini nazorat qilish metodi.

1. Metodlar quydagi guruhchalarni o'z ichiga oladi.
2. –guruh metodlari: so'z orqali uzatish va informatsiya eshitish orqali qabul qilish metodlari (og'zaki metodlar: hikoya, ma'ruza, suhbat va boshqalar)
3. –guruh metodlari: o'quv informatsiya ko'rgazmali kuzatish va ko'rish orqali qabul qilish metodlari (ko'rgazmali metod: dasturiy namoyish qilish va boshqalar).

–guruh metodlari: o'quv informatsiyasi amaliy mehnat harakatlari orqali bilish (amaliy metodlar, mashqlar, laborotiriya ishlari, dastur tuzish, pedagogik masalalarni echish, mehnat harakatlari va boshqalar).

1. Ta'limning rag'batlantirish metodlari:
2. Ta'limga qiziqishni ragbatlantirish metodi.

Ta'limga burch va ma'sulyatini rag'batlantirish metodi.

1. Xuddi shuningdek, ta'limda nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish metodlari quyidagilar:
2. Og'zaki nazorat o'z-o'zining nazorat qilish.
3. Yozma nazorat va o'z-o'izini nazorat qilish metodi.
4. Laboratoriya va amaliy nazorat hamda o'z-o'zini nazorat qilish metodi.

Test nazorati.

Bu metodlardan talabalarga bilish faoliyatini qabul qilish, anglash va amalga qo'llash faoliyatini shakllantirishda foydalaniladi.

Tushuntirish va o'qtirish metodi.

Ushbu tarzdagi metodni qo'llashda uqtiruvchi so'z vositasida mavzuni bayon qiladi va tushuntiradi. O'qituvchilar esa tenglashadi, anglab etish orqali uni faol qabul qiladi va o'zlashtiradi.

Mavzuning asosini tushuntirishi va uqtirishida hikoya usulida foydalaniladi. O'quv materiallari mazmunining og'aki bayon qilish, uning asosiy joylarini tushuntirish ko'zda tutiladi. Bu maqsadga erishish uchun hikoya metodini qo'llash samarali natija beradi. Bu metod orqali mavzuga xizmat qiladigan ma'lumotlar va voqealarni bayon qilish diqqatni faollashtiradi, hotirada saqlashni jadallashtiradi. Hikoyani bayon qilish uqtirish metodlarni samarali qo'llash shartlari rejani qunt bilan o'ylash, mavzuni yoritishning oqilona izchilligini ta'minlash, misollar va hikoyalarni muvaffiyatli tanlash, o'qtirish va tushuntirishda zaruriy himoyalanganlikni tanlash dardkor.

Himoya bir necha turga bo'linib, hikoya muqaddima, hikoya bayon, hikoya xulosalarga bo'linib, ular mavzuni yoritishga xizmat qiladi. Mavzuni tushuntirishda og'zaki bayon qilish (tushuntirish yoki biror bir lovhani ko'rsatishni ko'zda tutib hikoyadan o'zining hajmi kattaligi, mantiqiy qo'yilishi obrazli metodlash va umumlashtirish orqali mavzu maqsadiga erishiladi, hikoya qilish mavzuning maqsadini bir qismiga xizmat qiladi.

Ma'ruza matnini tushuntirish uqtirish informatsiyasini og'zaki bayon qilish, uzoq vaqt mobaynida bayon qilish uzoq vaqt davomida diqqatni tutib turish, tinglovchilarni fikrlashini faollashtirish usullari isbotlash, tasniflash, sistemalashtirish, umumlashtirish va boshqa usullarda foydalaniladi.

Tushuntirish va uqtirish metodi atroflicha o'ylangan fikrlar, savollar yordamida bilim berib, u o'quvchini faktlar tizimini yana tushunchalar va qonuniyatlarni o'zlashtirishga olib keladi.

Ta'limning muammoli- qidiruv metodlari tizimni so'z orqali ifodalash, ko'rgazmali va amaliyot metodlari yordamida foydalaniladi. Ta'limni muammoli uqtirish jarayonida o'qituvchi talabalarni bilish faoliyatini kuzatadigan faollashtiradigan, ongni charxlaydigan vazifalar beradi. Talabalar mustaqil yoki o'qituvchining yordamida uni echish, hal qilish uchun ijodiy izlanadilar.

Muammoli uqtirish yoki muammoli masalalarni echimini talab qilish o'quvchilarning egallagan ilimiy bilim bilimlariga hosil qilingan ko'nikmalariga asoslangan holda izlansa yoki olingan bilimlarning xotirlasa, bimalol o'zi echa oladigan qilib tuzilishi kerak. Aks xolda masala talabani ulgurmagan bilimlariga asoslani tuzilsa, u xolda o'ziga ishonmay qoladi, o'ziga bilishga ishonch yo'qoladi. Har qanday ilmiy ta'lim talaba uchun muammolidir. Chunki talabaga hozircha noma'lum bo'lgan yangilik bilan tanishtiradi. Muammoli uqtirish talabani fikrlash faoliyatini o'stiradi, har narsani bilishga qiziqish uyg'otadi. Faxm-farosatli mustaqil ijod qilishga intilish kabi shaxsiy fazilatlarni tarbiyalashga yordam beradi.

3.1.Nazariy dars o'tish uslubi.

Fan: O'zbekiston ilmiy iqtisodiyoti.

Mavzu: Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda investisiya faoliyatini jadalashtirish.

Darsning maqsadi: O'zbekiston milliy iqtisodiyotining bozor iqtisodiyoti sharoitida o'ziga xos rivojlanishi yo'llari, milliy iqtisodiyotiga investitsiya jalb qilishga axamyati haqida talabalarga o'rgatish.

Darsning tarbiyaviy ahamiyati: O'quvchi talabarga milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda investisiya faoliyatini jadallashtirish,

investitsiyaning yuzasidan tushunchalar berilib, ulardan mutaxassilik yuzasidan ko'nikmalar hosil qildirish.

Darsni rivojlantirish maqsadi: Talabalarga O'zbekistonda investisiyalar manbalari, investisiyalar ko'rsatmalari yuzasidan bilimlarni rivojlantirish.

Darsni turi- ma'ruza. Yangi bilimlarni o'rganish. Aralash o'qitish metodidan foydalanish.

Dars uchun ajratilgan vaqt – 2 soat.

Darsning jixozlanishi – grafiklar, EXMlar, kopyuterlar.

1. Dars rejasi:
2. Milliy iqtisodiyotga investisiyani jalb qilishning ahamiyati.
3. Investisiya faoliyatining shakllanishi va tartibga solinishi.

Iqtisodiyotga xorijiy investisiyalarni jalb qilish yo'llari.

2. O'zbekistonga investisiyalar manbalariga tahlili.
 - 1.Darsni tashkil etish. Talabalarni darsga qatnashishini yo'qlama qilinadi. Avvalagi darsda qatnashmagan talabalardan sababini aniqlanadi. Xonaning jihozlanishi ko'zdan kechiradi. O'quvchi – talablarni darsga tayyorligini ta'minlanadi

Yangi o'quv materialini bayon qilish.

O'quvchi dars rejasiga asosan quydagi ko'rinishda yangi materialni tushuntiradi:

Investisiyalarning ustuvor yo'nalishlarni aniq belgilash ilmiy asoslangan investisiya qarorlarni qabul qilish, investisiya faoliyatini oqilona tartibga solish asosida ichki va moliyaviy manbaalarni, barcha shart-sharoitlarini xisobga olgan holda jalb qilish, milliy iqtisodiyotni kelajagini belgilaydi. Investisiyalar zarur o'sish shartiga aylanadi. Bu esa, birinchi navbatta iste'mol va jamg'arma nisbatiga bog'liq.

O'zbekistonda investisiyalarni tadbiq etishning dolzarbligi investisiyalarni moliyalashtirishda ichki manbaalarni nisbatan

tiklanganligi, chet el kapitali kelishining etarli emasligi va bevosita xorijiy investitsiyalar kreditlari rolini yuqoriligi, moliyalashtirishda davlat mexanizmlarini sust rivojlanganligini, qo'shma korxonalarning etarli darajada samarali foyda yurita olmayotganligi, investitsiya jarayonining mintaqaviy notekisligi, eksport tarkibida noan'anaviy bo'lgan maxsulotlarni kuchaytiradigan kreditni jalb qilishning etarli emasligi va valyuta loyixalarida boy mahalliy xom-ashyo resurslaridan kam foydalanish loyixalarining amalga oshirishda investision resurslarni baholash zarurligi va boshqalar bilan belgilanadi.

Xalqaro moliya (investisiya) institutlarning valyuta kredit liniyalarida foydalanish loyixalarini amalga oshirishda investision resurslarni moliyalashtirishni amalyotga jiddiy o'zgartirishlar kiritgan. Investisiyalarni bozor mexanizmlari kengaytirish, noan'anaviy moliyalashtirish usullaridan foydalanish amaliyotini chuqur atroflicha tadqiq etish ularni umumiyashtirishni zaruratini kun tartibiga qo'ydi.

Investisiyalarning mazmun-mohiyat bo'yicha zamonaviy qarash nuqtai nazarining o'rganishi shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy fanlarini turli bo'limlari va amaliy faoliyatida ular turlicha talqin etiladi.

Investisiyalash maqsadlari sohalari safarbar etilish obektlari, harakat yo'nalishlari kelib chiqib, investisiyalash tushunchasi o'ziga xos ma'noda ishlatiladi.

Investisiyalar kapitalining barcha shakllari (ssuda, aksiyadorlik, tadbirkorlik) dan farqli o'laroq, butun risklar majmuini his etadi va kapitalini qiymatini yo'qotish riskni minimallashtirishni nazarda tutadi. Kapitaldan farqli o'laroq, investisiyalar aniq va noaniq bo'lgan risklar bilan ongli ravishda to'qnashadi va bog'lanadi. Investisiyalarni mamlakatlararo ko'chib yurish noaniq risklar va noaniq darajasini oshiradi.

Investisiyalarning mohiyati bo'yicha xulosa chiqarilsa , ular aniq va noaniq bo'lgan risklar va bo'lakdagi daromadlar bilan bog'liqdir. Investisiyalash haqidagi loyixa tanlanar va ular bo'yicha qaror qabul qilinir ekan, asosiy e'tibor risklarni va bo'lajak investisiya

daromadlilikini hisobga ola bilishga qaratilishi zarur. Investisiyalar qiymatini naqadar samara keltirish yo'nalishlarini aniqlash asosida ular manbalarini ishonchliligini tanlab olishi investisiyalash bilan bog'liq aniq va noaniq risxlarni o'lchash bilan bog'liqdir. Kapitalning daromadlar keltirish imkoniyati ular keladigan manbalar va ishlatiladigan yo'nalishlar bilan bog'liqdir.

Investisiyalarning mazmuni aniq manbalardan mablag' olishga kapital qiymatlar saqlanish riski darajasida bo'lajak samaraga erishishni hisobga olgan holda ularning asosiy quyilishini bildirgan. Ana shu belgilarga ko'ra investisiyalar boshqa qiymatlardan farq qilishi mumkin. Bularning barchasining asosida kapitalning harakatlanish jarayoni yotadi. Kapitalning harakat qilish jarayoniga jalb etishni investisiyalar mohiyati aks ettiradi.

Xalqaro investisiyalar munosabatlarida investisiyalarning huquqiy sharoitlari almashinishi asosida qo'shimcha risklar ta'sir ehtimoli oshadi. Mamlakat risklari quyidagilarni tutadi. Siyosiy vaziyat : iqtisodiy rivojlanish tendinsiyasi , xukumatning byudjet siyosati va uning jamg'arma va investiyalarga tasiri , narxida va valyuta kursini barqarorlashtirishga qaratilgan pul kredit siyosati ; mamlakat riski qabul qilinishi mumkin bo'lgan dollarda investiyalardan daromad olishlik imkoni . Bular xorijiy investiyalar risklari doirasini kengaytiradi xorijiy investiyalarning keskin farqi ularning mamlakatlar aro ko'chishi faqat o'z maqsadini ko'zlash , amal qilish sharoitlarining o'zgarishi ancha qulay sharoitlar bilan quyilishi, ishonch qozonish hisoblanadi investiyalarni tariflashda ularning o'ziga xos barcha xususiyatlarni aks etishi lozim deb hisoblanadi . Buning sababi xorijiy investisiyalar bir iqtisodiyot subekti kapitalini boshqasiga bog'lab qo'yish bo'lib, bunda o'ziga xos qo'shimcha risklar huquqiy sharoitlar investisiya iqlimining o'zgarishi xosdir . natijada mamlakatlar va mintaqalar bo'ylab kapital ko'chishi yuz beradi. Xorijiy investisiyalarning kirib kelishi kapital import qiluvchi mamlakatda soliq , ijara xaqi va boshqa tushumlar ko'payishini taminlaydilar.

Bozor iqtisodiyoti to'liq qaror topguncha investisiyalar uchun kreditlar, ijara haqi va boshqa tushumlar ko'payishini taminlaydi.

Bozor iqtisodiyoti to'liq qaror topguncha investisiyalar uchun soliq kreditlari, soliq imtiyozlari, bojxona to'lovlarini kamaytirish, iqtisodning ko'p mehnat talab qiladigan sektorlari, shu bilan bir vaqtda bandlik muommosini hal etuvchi yangi loyihalarga xorijiy investisiyalarni joylashtirishni rag'batlantirishdan to'liq foydalanish talab qilinadi. Investisiyalashda katta kapital talab qilinadigan va ilmiy yangiliklar yaratiladigan tarmoqlarni yangi loyixaning ularga joylashtirilishi zarur.

Xalqaro investisiya munosabatlari mamlakat ichki munosabatlaridan farqli o'laroq ayrim mamlakatlar korporasiyalar, kompaniyalar, moliya va kredit muassasalari va muayyan investisiyalar manfaatlarini aks ettiradi. O'zbekistonga chet el sarmoyalari oqimi kengayishi munosabati bilan investisiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishning asosiy vazifasi ommoviy va xususiy manfaatlar xorijiy mamlakatlar, kompaniyalar, muayyan investirlar manfaatlarining samarali nisbatini belgilash hisoblanadi. Iqtisodiyot erkinlasha borgan sari investisiya faoliyatini davlat tartiblashi ko'proq xususiy tadbirkorlik sohalari va iqtisodning aralash sektorlariga investisiya faoliyatiga jalb etishni va bu borada ularni rag'batlantirishga qaratish lozim .

Horij kapitalini jalb qiluvchi mamlakat ular oqimini rag'batlantirishni qulay sharoitlarni ta'minlash maqsadida soliq imtiyozlari, soliq kreditlari va boshqa kafolatlardan to'liq foydalanish zarurligi ahamiyatlidir.

Инвестицияларни кучли рағбатлантириш оқими сифатида жадаллаштирилган амартизациянинг турли усулларида фойдаланиш ҳисобланади; бир шароитда эскириш қийматини ажратиш; йиллар йиғиндисига қараб усули; қиймат қолдиғини икки ёқлама тугатиш усули; эксплуатация биринчи усули. Мулоҳаза қилишга ва ҳар томонлама ҳисоб-китобдан ўтказилган ажратмаларининг жадаллаштирилган усуллари инвестицияга йўналтирилган маблағни фойда солиғига тортилишидан сақлаб қолади.

O'zbekiston amaliyotida jadallashtirijgan anarmuzasiyada usuli asosiy kapital xizmat muddatini qisqartirishga imkon bergan, biroq amaliy jixatdan jadallashtirilgan deyarli istisno qiladi. Ishlab chiqarishga qaratilgan invistisiyalarni rag'batlantirish tadbirlari doirasini toraytiradi

Rag'batlantiruvchi soliq imtiyozlari inson kapitali texnologik va texnikaviy bilimlar soxasi rivojlantirishga qaratilgan invistisiyalar ko'lamini kengaytirilishiga qaratilishi zarur. Bularning barchasi O'zbekistondagi invistisiya muxiti modellashtirilishni talab etadi. Bu bilan xorijiy invstisiyalar say-xarakatiga ta'sir etuvchi omillar haqida tasovvur etish, chet el invtstisiyalarini tartibga solish vositalarini uyg'unlashtirish imkoniyatlari tug'iladi. Makroiqtisodiy barqororlik ba iqtisodiy o'sish ko'p ukladli iqtisodiyotning shakllanishi va tuzilmaviy o'zgarishlari xususiy korxonalar xisobi ortib borayotgan sharoitlarda O'zbekistonda YA I M ning barqarorligi kuzatiladi, bu esa kapital invistisiyalar o'sishiga mos emas.

Invistisiyalarning tarmaq tuzilishi taxlil ko'satishicha, so'ngi yillardagi birinchidan invistisiya siyosatida asosiy e'tiborkommunik aksiya bilan bog'liq sektorlarni rivojlantirishga qaratildi. Ikkinchidan, invistisiya tuzilishida noishlab chiqarish soxasi usulining yuqoriligicha erishildi. Uchinchidan jami invistitsiyalarda bosh isloxatchi, balki bosh investorlik vazifasini ham o'tadi.

Invistisiya jarayonlarini erkinlashtirishi bozor mexanizmlarini to'laroq ishlashini toqozo qiladi. Bunda nodavlat sektori doirasoda invistisiya faoliyatini jadallashtirish talab etiladi. Tahlil ko'rsatishicha moliyalashning davlat vositasi xozirchlik invistisiya sarflari samarasi oshishiga olib kelmadi . bu xolni davlat va nodavlat mulki miqyosidagi invistisiyalar tarmoq va texnologik tuzilmalardagi o'zgarish dinamikasi ham tasdiqlaydi. Bularning barchasi moliyaviy vositachilikni rivojlantirishga ko'maklashuvchi turli davlat moliyaviy invistisiyalari tarmog'li kengaytirishi talab etadi. Uy xo'jaligi bo'sh mablag'lari va individual jamg'armalarni jalp etish yo'li bilan ulardan uzoq muddatli investitsiya resusrlarini xosil etishi mumkin.

Investitsiyalarni moliyalashning davlat va bozor vositalari bir vaqtda amal qilishi iqtisodiyot turli sub'ektlarni teng bo'magan sharoitga qildi. harakat erkinligi va iqtisodiy tasabbusni bug'adi, byudjet mablag'ni oluvchilarga boqimandalikni yuzaga keltiradi. Investitsiyalarni moliyalash manbalarining tarkibi shuni ko'rsayadiki, ularni ta'minlashda korxonalar va aholi xususiy mablag'lari, chet el investitsiyalari ulushida o'zgarishlar kuzatilmoqda.

Byudjetdan tashqari davlat mablag'larini ham hisobga olganda investitsiyalashda davlatning ustuvorligi kuzatiladi. Shu bois O'zbekistonda investitsiya jarayonini qayta qurishning asosiy yo'nalishi, bizning fikrimiz investitsiya yukini byudjetdan moliyalashdan iqtisodiyot quyi sub'yektlari zimmasiga o'tkazish bo'ladi. Bu o'z-o'zini moliyalashdan iborat bozor tamoyiliga mos keladi. Yana boshqa bir muammo iqtisodning davlat sektoriga investitsiyalarning tarmoqlararo taqsimotini alohida nazorat qilgan holda turli manbalardan kelgan investitsiyalar nisbati samarali bo'lishga erishishdir. Moliyalash manbalarini takomillashtirish investitsiyalar va moliyalashda oshiradi, investitsiya risklarini sub'yektlar o'rtasida diversifikatsiyalab uni minimallashtirish, resurs egalari mas'uliyatni daromadlarning jadal takomillashuvi samarasini oshirish masalasini xal etishga yordam beradi.

Amaliy dars o'tish uslubi.

Mavzu: O'zbekistonda investitsiyalar manbalarining tahlili.

Dasrning maqsadi: O'quvchi talabalarga milliy investitsiyalar manbalarining tahlilini rivojlantirish bilan tanishtirish.

Darsni rivojlantirish maqsadi o'quvchi-talabalarga milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiya faoliyatini jadallashtirishga investitsiya ko'nikmalar shakllantirish.

Dars uchun ajratilgan vaqt 2 soat.

Dars turi – amaliy mashg'ulot.

Dars o'tish tartibi

Tashkiliy qism.

Uy topshiriqlarini tekshirish. Oldingi o'tilgan mavzu yuzasidan o'quvchilarga uyga vazifalar bajarib kelish lozim bo'lgan topshiriqlar berilgan bo'lsa uning bajarilishini tekshiriladi va baholanadi. Bazi hollarda o'quvchilardan ogzaki so'rab baholash ham mumkin.

Ma'ruza yuzasidan olgan bilimlarni mustahkamlash maqsadida milliy investitsiya ko'rsatkichlarini o'rganib chiqishda mustaqil ravishda topshiriqlar bajariladi.

O'quvchilarni yangi mavzu yuzasidan olgan ilimlarini nazorat qilish. Bu qismni amalga oshirish turli usullar yordamida bajarilish mumkin.

Og'zaki so'rash testlar yordamida amalga oshirish uchun kelgan o'quvchini o'rnidan turg'izib, og'zaki savol berilib, bilimni tekshirish o'rtaga savol tashlanib, kim javob beradi, korinishda bajarishi mumkin. Agarda savol javob davomida o'quvchilar bir xil xatoliklarga yo'l qo'yilsa yoki ko'pchilik bir savolga to'liq javob bera olmasa o'qituvchi shu qism yuzasidan qo'shimcha tushunchalar berish, to'ldirish lozim.

1. Uyga topshiriq berish.

Darsni yakunlash.

Xulosa

Kurs ishi iqtisodiy yo'nalishda o'quvchi kasb-hunar kolleji o'quvchilariga "Milliy iqtisodiyot fanidan nazariy va amaliy dars o'tish metodikasi ishlab chiqilgan.

Ishda kasb hunar kollejlarining asosiy vazifasi va maqsadi haqida to'xtalib o'tildi.

Kollejda ta'limning shakllantirish, uning maqsadi ta'lim tamoyillari, ta'lim metodlari haqida ma'lumot berilgan.

Ma'ruza va amaliy mashg'ulotning o'tish metodi ishlab chiqilganda og'zaki metoddan, amaliy metoddan foydalanish nazorat qilish metodlaridan foydalanilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: «Sharq», 1997 y.
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmokda. – T.: 1999 y.
3. O'zbekiston Respublikasi Qonuni: Ta'lim to'g'risida. T.: «Sharq», 1997 y.
4. O'zbekiston Respublikasi: Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. T.: «Sharq», 1997.
5. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. -T.: «O'qituvchi», 1993 y.
6. G'ulomov S. tahriri ostida. Oliy ta'lim me'yoriy hujjatlar to'plami. – T.: «Sharq», 2001 y.
7. Zunnunov A. Pedagogika tarixi. Darslik. –T.: «Sharq», 1997 y.
8. Hoshimov K., S. Ochil. O'zbek redagogikasi antologiyasi. Darslik. -T.: «O'qituvchi», 1995 y.
9. Mavlonova R, To'raeva O., Pedagogika. Darslik. –T.: «O'qituvchi», 2001.
10. Munavvarov A.Q. tahriri ostida. Pedagogika. T: «O'qituvchi», 1996 y.
11. Karimova V. Milliy istiqlof g'oyasini ta'lim jarayoniga joriy etishning pedagogik hamda psixologik asoslari. O'quv qo'llanma. –T.: «O'qituvchi», 2002 y.
12. Djumaboeva F. Talabalarni ijodiy fikrlashini rivojlantirish. O'quv qo'llanma. – T.: « O'qituvchi», 2002 y.
13. B.L. Farberman. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. – T.: «Fan» 1999 y.
14. K.Mirsaidov., O'.Xidirov., R.Choriev. Ishlab chiqarish ta'limi. – T.: «O'qituvchi», 2002 y.
15. N.Saidaxmedov. Yangi pedagogik texnologiyalar. – T.: «Moliya», 2003y.
16. Q.T.Olimov., L.T.Uzoqova., E.Z.Halilov va boshq. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. – T., «Fan», 2004 y.
17. B.L.Farberman va boshq. Oliy o'quv yurtlarida o'qitishning zamonaviy usullari. – T.: 2002 y.
18. Iminov T. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini isloh qilish bo'yicha me'yoriy hujjat. O'quv qo'llanma. –T.,1998 y.
19. Qurbonov O. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ta'lim to'g'risidagi qarorlari. O'quv qo'llanma. –T., 1998 y.
20. G'aybullaev N. Pedagogika. Ma'ruzalar matni. –T., 1999 yil.
21. Raximov I va bosh. «Pedagogika» fanidan muammoli ma'ruzalar matni. N., 2004.
22. [http:// www . inter. pedagogika ru.](http://www.inter.pedagogika.ru)
23. [www . school. edu. ru.](http://www.school.edu.ru)
24. [www. pedagog. uz.](http://www.pedagog.uz)

